



LOGOPEDNING DISLALIYA NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN MULOQOTI MUVAFFAQIYATLI PEDAGOGIK FAOLIYAT UCHUN ZARUR KOMPONENT SIFATIDA

Abidova Nilufar

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, prof.v.b.,

Ortiqova X.B

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, 1 kurs magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola dislaliya nutq nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedning pedagogik muloqotining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, logoped bilan bolaning samarali muloqoti bolaning nutqini tez va sifatli rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Individual yondashuv, interaktiv metodlar, o'yin va vizual vositalardan foydalanish hamda emotsional rag'bat samarali pedagogik jarayonni ta'minlaydi. Shu bilan birga, logopedning kommunikativ kompetensiyasi nutq tuzatish jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqola natijalari pedagogik muloqotning bolaning nutqiy rivojlanishidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi va logopedik faoliyatni yanada samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: dislaliya, nutq nuqsoni, logoped, pedagogik muloqot, individual yondashuv, nutq rivoji.

KIRISH

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining to'liq shakllanishi ularning psixolingvistik rivoji, ijtimoiy moslashuvi va ta'lim jarayoniga tayyorgarligi uchun muhim omil hisoblanadi. Nutq tovushlarini buzib talaffuz qilish bilan xarakterlanuvchi dislaliya bolada fonetik va fonematik idrokning yetarlicha shakllanmaganini, artikulyatsion apparatning noaniq harakatlanishini yoki sensorimotor moslashuvning sustligini ko'rsatadi. Bunday holatda logopedning bola bilan samarali muloqoti – diagnostika, korreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish va psixologik motivatsiyani shakllantirishning eng asosiy komponentidir.

Samarali logopedik muloqot nafaqat nutqni tiklash, balki bola shaxsining rivojlanishi, o'ziga ishonch hosil qilishi, emotsional barqarorlikni oshirishi va ta'lim faoliyatiga moslashishiga ham xizmat qiladi.

Dislaliya muammosi nutq nuqsonlari ichida eng keng tarqalgan shakllardan biri bo'lib, uning korreksiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlandi. Klassik logopediya maktabi vakillari L.S. Volkov, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina, R.E. Levina kabi olimlar dislaliya etiologiyasi, simptomatik xususiyatlari va uni tuzatishning pedagogik-psixologik asoslarini yoritib bergan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, dislaliya faqat artikulyatsion organlar faoliyatidagi mexanik buzilish bilan emas, balki bola nutqiy tajribasining cheklanganligi, fonematik idrokning yetarli rivojlanmaganligi va muloqot jarayonidagi to'sqinliklar bilan ham belgilanadi. Shu sababli logopedning bolaga individual yondashuvi, nutqiy vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishi korreksiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida baholanadi.



Keyingi yillarda logopedik muloqotning kommunikativ jihatlariga doir tadqiqotlar psixologiya va pedagogika fanlari kesishmasida olib borilmoqda. A.A. Leontyev, L.S. Vigotskiy, D.B. Elkoninlarning kommunikativ faoliyat nazariyalari logopedik mashg'ulotlarning motivatsion, affektiv va ijtimoiy komponentlariga ilmiy asos yaratdi. Ushbu tadqiqotlarda muloqot jarayonining emotsional qo'llab-quvvatlash, o'zaro ishonch va ijobiy munosabatga asoslanishi nutq o'zgarishining psixologik shartlaridan biri ekani ta'kidlanadi. Dislaliya holatlarida logopedning bolaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda konstruktiv muloqot muhitini yaratishi korreksion ishning samaradorligini oshirishi ko'rsatilgan.

Zamonaviy adabiyotlarda dislaliya bilan ishlashda interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, multimodal muloqot, logoritmika va vizual qo'llanmalar qo'llanilishi bo'yicha izlanishlar kengayib bormoqda. Tadqiqotchilar I.Yu. Levina, O.S. Orlova, L.V. Lopatina ishlarida logopedik muloqotning sensor-motor faollik bilan bog'liq integrativ yondashuvlari tahlil qilingan bo'lib, bunda logopedning har bir mashg'ulotni motivatsion jihatdan boyitishi, bola yoshiga mos dialogik vaziyatlar yaratishi alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston logopediya ilmida ham dislaliya muammosi va logoped muloqotining o'rni bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. M.Yu. Ayupova, S. Raximova, N. Murodova va boshqa mahalliy mutaxassislar bolalardagi fonetik-fonematik buzilishlar tabiatini o'rganib, logopedning pedagogik muloqoti korreksion jarayonning markaziy komponenti sifatida tavsiflanishi lozimligini qayd etganlar. Ayniqsa, bolada nutqqa nisbatan qiziqish uyg'otish, xatolarni to'g'rilash jarayonida emotsional qo'llab-quvvatlash va individual pedagogik yondashuvning samaradorligi alohida ta'kidlanadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, dislaliya korreksiyasida logopedik muloqot oddiy yordamchi metod emas, balki butun pedagogik jarayonni tartibga soluvchi asosiy vositadir. Muloqotning sifatli tashkil etilishi artikulyatsion mashqlarni o'rgatish, fonematik jarayonlarni rivojlantirish, nutq tezligi va aniq talaffuzni shakllantirishda muhim omil bo'lib, logopedning professional kompetensiyasi, kommunikativ madaniyati va pedagogik mahorati bilan bevosita bog'liqdir.

Dislaliya nutq nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib borilgan kuzatuvlar, amaliy mashg'ulotlar va logopedik jarayonni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, korreksion ishning samaradorligi, avvalo, logopedning bola bilan olib boradigan muloqot sifati bilan belgilanadi. Tadqiqot davomida 5-7 yoshdagi dislaliya tashxisi qo'yilgan bolalar ishtirokida o'tkazilgan mashg'ulotlar kuzatilib, logopedning verbal va neverbal muloqot uslublari, pedagogik pozitsiyasi va individual yondashuvi tahlil qilindi.

Analiz natijalariga ko'ra, logopedning dars davomida qo'llagan nutqiy ko'rsatmalari aniq, izchil va bola yoshiga mos bo'lganida, mashg'ulotning faolligi oshgan, bolaning talaffuzdagi xatolarni idrok qilishi va to'g'rilashga bo'lgan motivatsiyasi kuchaygan. Aksincha, ko'rsatmalar murakkab, ortiqcha so'zlar bilan yuklangan yoki bir marotabadan ortiq takrorlanmagan holatlarda bola faoliyatida ikkilanish, ortiqcha pauzalar va diqqatning pasayishi kuzatildi. Bu esa logoped muloqotining strukturaviy aniq va funksional bo'lishi muhimligini tasdiqlaydi.



Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundan iboratki, logopedning bolaga bo'lgan emotsional qo'llab-quvvatlashi maqto'v, rag'bat ifodalari, yumshoq intonatsiya, ko'z aloqasi va ijobiy mimikalar artikulyatsion mashqlarni bajarish samaradorligini sezilarli oshirgan. Dislaliyaga ega bo'lgan bolalarda ko'pincha nutqiy harakatlarning noaniqligi, fonematik idrokning yetishmovchiligi va psixologik ishonchsizlik kuzatilgani sababli, muloqotning qo'llab-quvvatlovchi xarakterga ega bo'lishi korreksion jarayonning muhim komponenti sifatida baholandi.

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, logoped mashg'ulot jarayonida o'yin elementlaridan, vizual ko'rgazmalardan, logoritmik mashqlardan foydalanganida, bolalarning artikulyatsion faolligi va nutqiy jarayonlarga qiziqishi 30–40 % ga oshgan. Bu interaktiv muloqot shakllarining dislaliya korreksiyasida samarali ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, logopedning har bir mashqni dialog shaklida tashkil qilishi savol-javob, tushuntirish, qayta takrorlash o'zlashtirish darajasini sezilarli yaxshilagan.

Olingan natijalarga ko'ra, logopedning professional kommunikativ kompetensiyasi quyidagi jihatlarida korreksion samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi:

- instruksiyalarni to'g'ri berish mahorati,
- emosional-motivatsion qo'llab-quvvatlash,
- dialogik munosabatni shakllantirish,
- bolaning psixologik holatini inobatga olgan individual yondashuv,
- o'yin va vizual vositalardan o'rinli foydalanish.

Shu asosda aytish mumkinki, dislaliya korreksiyasida logoped muloqoti oddiy metodik vosita emas, balki tuzatish pedagogikasi jarayonining asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri tashkil etilgan muloqot bola nutqini to'g'rilash, fonematik jarayonlarni rivojlantirish va talaffuz sifatini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari logopedning dislaliya nutq nuqsoni bo'lgan bolalar bilan muloqoti korreksion jarayonning markaziy va hal qiluvchi komponenti ekanini yaqqol tasdiqlaydi. Adabiyotlar tahlili va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, logopedning nutqiy ko'rsatmalari, emotsional qo'llab-quvvatlashi, pedagogik takt va individual yondashuv bolalarning fonetik-fonematik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu natija L.S. Volkov, Filicheva T.B., Chirkina G.V. kabi olimlarning dislaliya korreksiyasida muloqotning psixologik-pedagogik ahamiyati borasidagi nazariy qarashlari bilan hamohangdir.

Tahlil jarayonida aniqlangan faktlar shuni ko'rsatadiki, logopedning o'yin, savol-javob, vizual ko'rsatmalar va multimodal muloqot usullaridan foydalanishi bolaning faol ishtirokini rag'batlantiradi, artikulyatsion apparatning harakatchanligini oshiradi va nutqiy xatolarning tuzatilish jarayonini tezlashtiradi. Bu esa zamonaviy logopediya ilmida ta'kidlanayotgan interaktiv, motivatsion va kommunikativ yondashuvlarning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ijobiy emotsional muhit yaratish, rag'bat berish va bolaning nutqiy muvaffaqiyatlarini tan olish uning psixologik holatini barqarorlashtiradi va nutqiy o'zgarishlarni mustahkamlaydi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat logopedning korreksion muloqoti ikki tomonlama xarakterga ega ekanidir. Bir tomondan, u logoped tomonidan boshqariladigan pedagogik jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan, bola tomonidan faol ishtirok, qayta aloqa,



savollarga javob va nutqiy harakatlarni takrorlash orqali shakllanadi. Bu ikkiyoqlama dinamikaga asoslangan muloqot bola nutqining tabiiy rivojlanish mexanizmlariga yaqin bo'lib, muloqot orqali o'rganish prinsiplarini qo'llab-quvvatlaydi. Bunday jarayon Vigotskiyning proksimal rivojlanish zonasi haqidagi nazariyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, logopedning yordamchi roli bolaning nutqiy rivojlanishida vaqtinchalik, lekin muhim "ko'prik" funksiyasini bajaradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, logoped muloqotidagi sustlik, yetarli izoh bermaslik yoki emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi korreksion jarayonni sekinlashtiradi, bolada ishonchsizlik va nutqiy faollikning pasayishiga olib keladi. Aksincha, logopedning faol, aniq va samimiy muloqoti bolaning nutqiy o'zgarishlarini mustahkamlab, xatolarni to'g'rilashni tabiiy jarayon sifatida qabul qilishiga yordam beradi. Bu esa logopedning professional kommunikativ kompetensiyasi dislaliya korreksiyasida metodik bilimlar bilan teng darajada muhim ekanini ko'rsatadi.

Olib borilgan muloqot tahlili va ilmiy manbalar bilan solishtirish shuni anglatadiki, dislaliya korreksiyasining samaradorligi faqat artikulyatsion mashqlar yoki metodik vositalarga emas, balki logoped va bola o'rtasidagi muloqot sifatiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli logopedlar uchun kommunikativ madaniyatni rivojlantirish, individual pedagogik yondashuvni kuchaytirish va emotsional qo'llab-quvvatlashni oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Dislaliya nutq nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda logopedning muloqoti asosiy va muhim pedagogik komponent sifatida ajralib turadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nutqning normadan chetga chiqishi faqat bolaning individual xususiyatlari bilan bog'liq emas, balki logoped bilan bolaning muloqoti sifatiga ham bevosita bog'liq. Muloqotning ijobiy va interaktiv usullari bolaning motivatsiyasini oshiradi, nutqiy xatolarni tezroq tuzatishga yordam beradi va pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi. Logoped va bola o'rtasidagi muloqot quyidagi jihatlarida samarali bo'lishi lozim: individual yondashuvni ta'minlash, o'yin va vizual vositalardan foydalanish, emotsional rag'bat va qo'llab-quvvatlashni tashkil etish.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, pedagogik vositalar va metodik yondashuvlar samarali ishlatilsa, dislaliya bilan bolalarning nutqini tuzatishda sezilarli natijaga erishish mumkin. Shuningdek, natijalar shuni ko'rsatadiki, logopedning kommunikativ kompetensiyasi va pedagogik muloqoti bolaning nutqiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Shu bois, logopedlar uchun maxsus treninglar tashkil etish, metodik qo'llanmalarni yangilash va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda pedagogik muloqotni tashkil etish tavsiya etiladi. Kelgusida tadqiqotlar nutq nuqsonlarini tuzatishda muloqotning uzoq muddatli ta'sirini va bolaning individual xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga qaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Волкова Л.С. Логопедия. – М.: Владос, 2003. – 320 с.



2. Филичёва Т.Б. Особенности формирования речи детей дошкольного возраста. – М.: Просвещение, 2000. – 256 с.
3. Аюпова М.Ю. Логопедия. – Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2013. – 280 с.
4. Chirkina G.V. Psikhologo-pedagogicheskie osnovy korrektsii dislaliji u detej. – SPb.: Piter, 2015. – 192 p.